O’zbekiston-Turkiya: ijtimoiy-gumanitar fanlar yo’nalishidagi ilmiy aloqalar

O’zbekiston hamda Turkiya o’rtasida jamiyatimizning barcha jabhalari singari ilm-fan sohasidagi hamkorlik yuksak darajada yo’lga qo’yilgan, desak mubolag’a bo’lmaydi.

Xususan, O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O’zbek tili, adabiyoti va folklori instituti adabiy aloqalar va adabiyot nazariyasi hamda o’zbek mumtoz adabiyoti bo’limlari xodimlari tomonidan turk adabiyoti tarixi va buguni chuqur tadqiq etib kelinmoqda. Turk adabiyoti haqida ilmiy ishlar, tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bugungacha Institut Turkiya Jumhuriyatining bir qator ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta’lim muassasalari bilan aloqalar o’rnatgan. Jumladan, Anqara universiteti, Anqara Hoji Bayram Vali universiteti, Karabuk universiteti, Amasya universitetlari bilan ilmiy hamkorliklar yo’lga qo’yilgan. Anqara universiteti professori Aynur O’z O’zjan, Hoji Bayram Vali universiteti professori Vali Savash Yeluk, Ege universiteti professori Fikret Turkman, Amasya universiteti professori Metin Orbaylar Turkiya tomonidan vakil sifatida faoliyat olib borishmoqda. Yuqorida aytilgan universitetlar bilan hamkorlik shartnomalari mavjud. Hamkorlik shartnomalarida, asosan, o’zbek va turk ijodkorlari asarlarini tarjima qilish, ular asosida ilmiy tadqiqotlar yaratish, tadqiqotchilarni Turkiya ta’lim muassalarida stajirovkaga yuborish, folklor ekspeditsiyalariga olib chiqish, ma’lum mavzular doirasida hamkorlikda ilmiy loyihalar ustida tadqiqotlar olib borish, dissertatsiyalarga ilmiy rahbarlik va opponentlik ishlarida hamkorlik qilish kabi masalalar belgilangan.

Shuningdek, FA Milliy arxeologiya markazi va Turkiya Respublikasining Istanbul universiteti San’at tarixi instituti o’rtasida Qashqadaryo viloyati Koson tumanida joylashgan Yerqo’rg’on yodgorligida arxeologik izlanishlar olib borish haqida shartnoma imzolangan. Milliy arxeologiya markazi ushbu tadqiqotlarni yanada rivojlantirish uchun Turkiya ilmiy tadqiqot markazlari bilan hamkorlikda qadimda Yevroosiyo mintaqasida ko’chmanchi chorvadorlarning tarqalishi, Turk hoqonligi va turkiy davlatlar (Saljuqiylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, Temuriylar) tarixini o’rganish borasida qo’shma izlanishlar olib borish taklifini bildirgan.

Bundan tashqari, FA Davlat adabiyot muzeyi Turkiyaning Karabuk universiteti bilan ilmiy hamkorlikni yo’lga qo’ygan. 2020-yildan boshlab Turkiyaning G’ozt Bayram Valiy, Egey va Qoradengiz universitetlari bilan ilmiy-ijodiy hamkorlik tashkil etilib, hamkorlik shartnomalari imzolangan.